

XALQARO MIGRATSIYANING HUDUDLAR GEODEMOGRAFIK VAZIYATIGA TA'SIRI

Berdikulova Muxayyo Toshtemirovna
Qarshi davlat universiteti o'qituvchisi. O'zbekiston
Hamdamova Iroda Murodali qizi
Qarshi davlat universiteti talabasi

Аннотация: Mazkur maqolada aholi migratsion harakatlarining mintaqaviy jihatlari bayon qilingan bo'lib, xalqaro migratsiyaning davlatlar demografik vaziyatiga ta'siri o'rganilgan. Aholi mexanik harakatining sabablari izohlangan bo'lib, migratsiya natijasida hudud aholisidagi o'zgarishlar, iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlar tahlil qilingan.

Калит сўзлар: aholi, migratsiya, geodemografik vaziyat, mehnat resurslari, migrant, iqtisodiyot, aholining mexanik harakati, ishchi kuchi.

ВЛИЯНИЕ МЕЖДУНАРОДНОЙ МИГРАЦИИ НА ГЕОДЕМОГРАФИЧЕСКОЕ ПОЛОЖЕНИЕ РЕГИОНОВ

Бердикулова Мухайё Тоштемировна
Преподаватель Каршинского государственного университета. Узбекистан
Хамдамова Ирода Муродали кизи
Студентка Каршинского государственного университета

Аннотация: В статье рассматриваются региональные аспекты миграции населения, исследуется влияние международной миграции на демографическую ситуацию стран. Обосновываются причины механического движения населения, анализируются изменения в численности населения региона в результате миграции, экономические и социальные последствия.

Ключевые слова: население, миграция, геodemографическая ситуация, трудовые ресурсы, мигранты, экономика, механическое движение населения, рабочая сила.

THE IMPACT OF INTERNATIONAL MIGRATION ON THE GEODEMOGRAPHIC SITUATION OF REGIONS

Berdikulova Mukhayyo Toshtemirovna
Teacher at Karshi State University. Uzbekistan
Hamdamova Iroda Murodali kizi
Student at Karshi State University

Annotation: This article describes the regional aspects of population migration, studies the impact of international migration on the demographic situation of countries. The reasons for the mechanical movement of the population are explained, and changes in the population of the region as a result of migration, economic and social consequences are analyzed.

Keywords: population, migration, geodemographic situation, labor resources, migrant, economy, mechanical movement of the population, labor force.

Aholi migratsiyasi - aholining yashash joyini o'zgartirishi bilan bog'liq ko'chishi bo'lib, iqtisodiy - ijtimoiy faoliyatning ko'p tomonlarini qamragan muammolar, sog'ligini tiklash, o'qish, urushlar yoki inson huquqlari buzilishi natijasida o'z vatanlarini tark etish va boshqa sabablar tufayli yuzaga keladi.

Migratsiya nafaqat mamlakat aholisining soni, milliy-etnik, yoshi va jins tarkibiga, balki iqtisodiy faol aholi ulushiga ham ta'sir qiladi. Migrantlar iqtisodiy

rivojlangan mamlakatlarda yashashni afzal ko'radilar, chunki, bunday davlatlarda yuqori maoshli ish topish imkoniyati bo'lib, immigratsiya qonun doirasida ta'minlanadi. Aholi ixtiyoriy ravishda yoki zarurat bilan migratsion harakat qiladi. Migratsion harakatni amalga oshirishga turli omillar ta'sir ko'rsatadi; tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy omillar: tabiiy ofatlar, yuqori maoshli ish, ta'lim olish istagi kabilardir. Migrantlar iqtisodiyotning muayyan tarmoqlarida ishchi kuchi tanqisligini to'ldirishga yordam beradi va shu orqali milliy daromadni oshiradi. Aholisining ko'p qismi migrantlar bo'lgan barcha mamlakatlar kuchli iqtisodiyotga ega bo'lib, fuqarolarini munosib turmush darajasi va yuqori ish haqi bilan ta'minlay oladilar. Rossiya, BAA va Saudiya Arabistoni iqtisodiyoti neft va gaz eksportidan daromad oladi. AQSh yuqori xizmat ko'rsatish sohasiga, Germaniya va Osiyoning rivojlangan davlatlari esa mashinasozlik tarmoqlariga tayanadi. Hududga kirib kelayotgan migratsiya oqimi (immigratsiya) aholi sonining o'sishiga xizmat qilsa, hududdan ketish (emigratsiya) aksincha, aholi sonining kamayishiga olib keladi. Mehnat resurslari yetishmaydigan hududlarda immigratsiya iqtisodiy faollikni oshiradi, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish tarmoqlarini rivojlantirishga zamin yaratadi. Biroq yuqori darajadagi emigratsiya ishlab chiqarish salohiyatining susayishiga, ayrim hududlarda "aholining qarishi" jarayonining tezlashishiga sabab bo'ladi. Migratsiya, odatda, mehnatga layoqatli yoshlar o'rtasida ko'proq uchraydi. Yuqori darajadagi tashqi migratsiya hududlarda yoshlar sonining kamayishi, tug'ilishning qisqarishi hamda mehnat bozorida demografik bosimning ortishiga olib keladi. Migratsiya hududning etnik tarkibining o'zgarishiga ta'sir etadi. Turli millat vakillarining ko'chib kelishi hudud aholisining ko'p madaniyatli bo'lishiga olib kelib, ijtimoiy integratsiya uchun yangi imkoniyatlar yaratishi bilan birga, ba'zan madaniy moslashuv, til bilish kabi muammolar yuzaga kelishi mumkin.

Jahon Banki ma'lumotlariga ko'ra, xalqaro migratsiya oqimining 70–75 foizini mehnatga layoqatli yoshlar tashkil etadi. Bu hududlarda demografik qarish jarayonining tezlashishiga, tug'ilish ko'rsatkichlarining pasayishiga olib kelishi

mumkin (World Bank, 2023). Immigratsiya oqimini qabul qiluvchi hududlarda esa aksincha, mehnat resurslari bazasi kengayadi va yoshlar ulushi ortadi.

Xalqaro Migratsiya tashkilotining ma'lumotiga ko'ra, dunyo bo'ylab 281 mln xalqaro migrant bo'lib, bu dunyo aholisining 3,6 foiziga teng. Migrantlarning 48,1 foizini ayollar, 51,9 foizini erkaklar tashkil qiladi. Dunyo bo'yicha jami migrantlarning Yevropa va Osiyo qit'asi 62% gacha, Shimoliy Amerika 21%, Afrika 9%, Lotin Amerikasi va Karib havzasi 5%, Okeaniya 3% ini tashkil etmoqda.

Migrantlar soni bo'yicha yetakchi davlatlarga AQSh, Fors ko'rfazi davlatlari, Yevropa, Kanada va Avstraliya kiradi. Masalan, AQShda migrantlar umumiy aholining 17,4 foizini tashkil qiladi. Yevropa Ittifoqi davlatlarida aholining 6% dan ortig'i yoki taxminan 27,3 million kishi YeI fuqarolari emas. Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya va Ispaniya qit'adagi eng ko'p migrantlar soni bo'lgan davlatlardir.

Quyida aholisi tarkibida migrantlar soni eng ko'p bo'lgan dunyo davlatlari keltirilgan:

Amerika Qo'shma Shtatlari eng ko'p immigrantga (50,6 mln) ega bo'lgan davlat bo'lib, jami aholi (344,9 mln kishi) ning 14,5 foizini tashkil etadi. 1970 yildan beri AQShga kelgan migrantlar soni deyarli 4 baravarga oshgan. Qo'shma Shtatlarga ko'chib keluvchilar soni Meksikadan eng ko'p miqdorni tashkil etadi. Migrantlarning Qo'shma Shtatlarni tanlashining asosiy sabablaridan biri - bu ishga joylashish imkoniyatlari, muhandislik va IT-dan mavsumiy qishloq xo'jaligi ishlarigacha bo'lgan keng doiradagi ish o'rinlarini taklif qiluvchi turli sohalarning mavjudligidir.

Germaniya Yevropadagi eng ko'p migrantlar davlati bo'lib, immigrantlarning umumiy soni 15,4 mln bo'lib, mamlakat 84,3 mln aholisining 18,3 foizni tashkil qiladi. Mamlakat dunyoda rivojlangan iqtisodiyoti, yuqori turmush darajasi, xarid qobiliyati va ish haqi bilan migrantlarni o'ziga jalb qilgan G'arbiy Yevropaning industrial davlatidir.

Saudiya Arabistoni 13,5 mlnga yaqin migrantni qabul qilgan bo'lib, mamlakat 34,2 mln aholisining 39,5 foizini tashkil etgan xorijliklar asosan, mehnat migrantlaridir. Saudiya Arabistoni Fors ko'rfazidagi mehnat migratsiyasining asosiy markazi hisoblanadi. Mehnat migrantlari Janubiy va Janubi-sharqiy Osiyodan, shuningdek, Somali, Efiopiya va Eritreya kabi Sharqiy Afrika davlatlaridan keladi. AQSh va G'arbiy Yevropa davlatlaridan kelgan migrantlar soni esa kam.

Rossiyada migrantlar soni 11,6 mln kishi bo'lib, jami aholi (146,3 mln kishi) ning 8 foizini tashkil etadi. Kelgan migrantlarning aksariyati sobiq Sovet Ittifoqi davlatlari fuqarolaridir. O'zbekiston, Tojikiston va Qirg'izistondan Rossiyaga kelayotgan migrantlarning asosiy sabablari sifatida iqtisodiy ehtiyojlar, ta'lim, o'z-o'zini ish bilan ta'minlash kabilar ko'rsatiladi.

Birlashgan Arab Amirliklarida 11,1 mln kishi istiqomat qiladi, ularning 78 foizi (8.6 mln) migrantlardir. Hindlar eng katta chet ellik guruhni tashkil qiladi, undan keyin pokistonliklar, bangladeshliklar, misrliklar, filippinliklar va boshqalar. BAA Yaqin Sharq mamlakati bo'lishiga qaramay, Dubay Yevropa hayotiga juda o'xshash turmush tarziga ega. Shahar amirlikning eng muhim savdo va moliyaviy markazidir. Davlat tom

monidan innovatsion texnologiyalarni faol tatbiq etish va tadbirkorlik hamda sarmoyaviy imkoniyatlarni qo'llab-quvvatlovchi immigratsiya dasturlari ishlab chiqilgan. Migrantlar tarkibida turli ijtimoiy qatlam vakillari, jumladan, biznesni rivojlantirish istiqbollarini, qulay soliq siyosatini va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashni qadrlaydigan xorijiy tadbirkorlar bo'lib, yuqori turmush darajasi, bandlik imkoniyatlari va qonuniylashtirish migrantlarni jalb qiluvchi asosiy omillardir.

Xalqaro migratsiya immigrantlarga faqat iqtisodiy ehtiyojlar emas, balki, ijtimoiy kafolatlar va ta'lim olish imkoniyatlarini ham bermoqda. Katta xalqaro nufusga ega bo'lgan ta'lim muassasalari, yuqori sifatli ta'lim migrantlarning ushbu mamlakatlarni tanlashning yana bir sababidir. AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya yoki BAAda tahsil olgan va butun dunyoda eng muhim zaruriy sohalar

mutaxassislarining bandligi hamda xalqaro miqyosda kasbiy faoliyat yuritishlari uchun imkoniyatlar yaratadi.

Migratsiyani afzallik jihatlarini sifatida quyidagilarni izohlash mumkin: malakali ishchi kuchi tanqisligini kamaytiradi, urbanizatsiya jarayonlarini tezlashtiradi, iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlaydi, jamiyatda ko'p madaniyatlilikni kuchaytiradi.

Tashqi migratsiyada, ayniqsa yosh, bilimli kadrlarning ketishi malakali mutaxassislar yetishmovchiligi, iqtisodiyot tarmoqlarida raqobatbardoshlikning pasayishi, innovatsion rivojlanish sur'atlarining sekinlashishi kuzatiladi. Mehnatga layoqatli yoshlarning ketishi oqibatida demografik nomutanosiblik, ya'ni, qariyalar ulushining ortishi, tug'ilish ko'rsatkichining pasayishi, demografik yuklamaning oshishi yuzaga keladi. Katta miqdorda migrantlar kirib kelgan davlatlarda sog'liqni saqlash, ta'lim, turar joy, transport tizimida ortiqcha yuklama yuzaga keladi, ish o'rinlari uchun raqobat, uy-joy narxlarining oshishi kuzatiladi. Nazorat qilinmagan migratsiya natijasida noqonuniy mehnat bozori, jinoyatchilikning ayrim turlarining ko'payishi, noqonuniy yashash hollari kabi xavflar ortishi mumkin.

Migratsion harakat hudud demografik rivojlanishining muhim tarkibiy qismi bo'lib, u aholi soni, yosh-jins tarkibi, urbanizatsiya darajasi, etnik tarkibiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Migratsiya ijobiy demografik va iqtisodiy samaralar berishi bilan birga, me'yoridan ortiq darajada bo'lishi davlat va aholi uchun jiddiy tahdidlar tug'diradi. Shu boisdan migratsiya siyosatini to'g'ri yo'naltirish, hududlararo demografik muvozanatni ta'minlash va migratsiya oqimlarini boshqarish mamlakat uchun ustuvor vazifalaridan biri bo'lib, mehnat bozori ehtiyojlari, demografik barqarorlik, ijtimoiy integratsiya va xavfsizlik talablarini inobatga olgan holda yuritish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar va internet saytlari:

1. <https://iworld.com/ru/blog/which-country-has-the-most-migrants>
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Xalqaro_migratsiya_tashkiloti
3. А. Носовский. «Миграционное право». Юридического департамент iWorld.
4. Бердикулова М. Т. ЕР ШАРИ АҲОЛИСИНИНГ ГЕОДЕМОГРАФИК ВАЗИЯТИ //Экономика и социум. – 2022. – №. 10-1 (101). – С. 286-289.

5. Berdiqulova M. T. AHOLINI RO'YXATGA OLISHDA GEOGRAFIK VA DEMOGRAFIK MA'LUMOTLARNING O'RNI //Экономика и социум. – 2022. – №. 3-1 (94). – С. 29-32.
6. Berdiqulova M. T., Botirov Y. Z. MAMLUKAT POYTAXT SHAHARLARI O'ZGARISHINING GEOGRAFIK JIHATLARI //Экономика и социум. – 2025. – №. 4-1 (131). – С. 146-150.
7. Berdikulova M. T. DEMOGRAPHIC ASPECTS OF FORMATION OF LABOR RESOURCES IN KASHKADARYA REGION //Экономика и социум. – 2024. – №. 11-1 (126). – С. 82-85.